

2021– yilning yanvar – mart oylarida Andijon viloyatining qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021– yilning yanvar – mart oylarida qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 2 382,5 mlrd. soʻmni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 103,3 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar – 2 229,4 mlrd. soʻmni (103,5 %), oʻrmon xoʻjaligi – 129.6 mlrd. soʻmni (101,4 %), baliq xoʻjaligi – 23,5 mlrd. soʻmni (101,7 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi tarkibida Andijon viloyatining ulushi 8.0 % ni tashkil etdi.



2 382,5

**Andijon viloyati bo'yicha
qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. soʻm**

01



2 229,4

**Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik
va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar**

02



129,6

Oʻrmon xoʻjaligi


03




23,5

Baliqchilik xoʻjaligi

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o'sish sur'ati




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



- O'rmon xo'jaligi
- Baliqchilik xo'jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xo'jaligi sohasidagi xizmatlar

2021– yilning yanvar – mart yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 93,6 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 5,4 % i – o‘rmon xo‘jaligi, 1,0 % i – baliq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2021– yilning yanvar – mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Asaka (240 mlrd. so‘m) va Shahrihon (234 mlrd. so‘m) tumanlariga qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Xonobod shahri (26 mlrd. so‘m) va Andijon shahri (159 mlrd. so‘m), Bo‘ston (69 mlrd. so‘m) tumanida esa aksincha o‘sinh sur‘atlari pastligi kuzatildi.

Viloyat ko‘rsatkichidan (103,3 %) yuqori o‘sinh sur‘atlari Ulug‘nor (117,5 %) va Bo‘ston (109,0 %) tumanlarida kuzatildi. Andijon (97,2 %), Xonobod (99,6 %) shaharlarida, Paxtaobod (101,9 %) tumanida esa aksincha o‘sinh sur‘atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2021– yilning yanvar – mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 2 220,7 mlrd. so'mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 103,5 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 141,6 mlrd. so'mni (106,2 %), chorvachilik mahsulotlari – 2 079,2 mlrd. so'mni (103,3 %) tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari mahsulotlarining ulushi

6,4 %
Dehqonchilik
mahsulotlari




93,6 %
Chorvachilik
mahsulotlari

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)



■ Dehqonchilik mahsulotlari ■ Chorvachilik mahsulotlari

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 90,5 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 7,9 % i – fermer xo'jaliklariga, 1,6 % i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)



2021-yilning yanvar – mart oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Ulug'nor tumanida (28,6 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Xonobod shahrida (100 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Asaka tumanida (3,5 %) qayd etildi.


Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Buloqboshi tumanida (2,8 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Ulug'nor tumanida (70,9 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Baliqchi tumanida (0,2 %) qayd etildi.

Dehqonchilik


2021– yilning yanvar – mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 141,6 mlrd. soʻmni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 106,2 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 6,4 % ni tashkil qildi.

Sabzavotlar


Hajmi, t.



Oʻsish surʼati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi



● ermer xoʻjaliklari

● dehqon(shaxsiy yordamchi)
xoʻjaliklari


● qishloq xoʻjaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi
tashkilotlar



2021– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan 3 809 t. sabzavotlar (2020– yilning yanvar – martiga nisbatan 9,4 % ga koʻp) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish koʻrsatkichlarini xoʻjaliklar toifalari boʻyicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 74,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari hissasiga toʻgʻri kelishini koʻrsatmoqda.



Andijon viloyati bo'yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna




Chorvachilik



2021– yilning yanvar – mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2 079,2 mlrd. soʻmni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 103,3 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 93,6 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʻrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʻpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʻldirishga imkon yaratdi.




2021– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 41,6 ming t. go'sht (2020– yilning yanvar –martiga nisbatan 4,8 % ga koʻp), 103,1 ming t. sut (3,1 % ga koʻp), 52,3 mln. dona tuxum (0,3 % ga koʻp), va 1 661,0 t. baliq (1,0 % ga koʻp) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi



Ermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi)
xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi
tashkilotlar



2021– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 41,6 ming t. go'sht (2020– yilning yanvar –martiga nisbatan 4, 8 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 95,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Andijon viloyati bo'yicha go'sht (*tirik vaznda*) yetishtirish hajmi, tonna




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Ermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 103,1 ming t. sut (2020– yilning yanvar – martiga nisbatan 3,1 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 93,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Andijon viloyati bo'yicha ishlab chiqarilgan sut hajmi, tonna




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



**Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 52,2 mln. dona tuxum (2020– yilning yanvar – martiga nisbatan 0,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 56,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




Andijon viloyati bo'yicha olingan tuxum hajmi, ming dona




Baliq


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



**Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**



● **Ermer xo'jaliklari**

● **Dehqon (shaxsiy yordamchi)
xo'jaliklari**


● **Qishloq xo'jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi
tashkilotlar**




2021– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 661,0 t. (2020– yilning yanvar – martiga nisbatan 1,0 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 57,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Andijon viloyati bo'yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2021– yining 1– aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,0 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 94,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 5,1 % i fermer xo'jaliklariga, 94,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 17,1 % i fermer xo'jaliklariga, 81,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 17,3 % i fermer xo'jaliklariga, 70,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 11, 8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 052,2 ming taga yetdi.


2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 4,1 ming taga (0,4 %) ko‘paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O‘shish sur‘ati



**Bosh soning
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**



● **ermer xo‘jaliklari**

● **ehqon (shaxsiy yordamchi)
xo‘jaliklari**


● **qishloq xo‘jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi
tashkilotlar**



2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 94,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Andijon viloyati bo'yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh




2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 358,5 ming taga yetdi.


2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 1,1 ming taga (0,3 %) ko‘paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati



**Bosh soning
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




● **Ermer xo‘jaliklari**

● **Dehqon (shaxsiy yordamchi)
xo‘jaliklari**


● **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi
tashkilotlar**



2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, sigirlarning bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 94,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzaitildi.



**Andijon viloyati
bo'yicha sigirlarning
umumiy bosh soni,
ming bosh**




2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 1 442,2 ming taga yetdi.


2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 2,2 ming taga (0,2 %) ko‘paydi.

Qo‘y va echkilar


Soni, ming bosh



O‘sinh sur‘ati



**Bosh soning
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**



● **ermer xo‘jaliklari**

● **ehqon (shaxsiy yordamchi)
xo‘jaliklari**


● **qishloq xo‘jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi
tashkilotlar**



2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 94,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Andijon viloyati bo'yicha qo'y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh




2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 6 653 taga yetdi.


2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 61 taga (0,9 %) ko‘paydi.

Otlar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati



Bosh soning
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi




- Ermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlarning bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 81,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzaitildi.



Andijon viloyati bo'yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh




2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 7 669,0 ming taga yetdi.


2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 15 ming taga (0,2 %) ko‘paydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati



**Bosh soning
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




● Ermer xo‘jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari


● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, parrandalarning bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 70,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Andijon viloyati bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 74-228-29-63
• 74-228-29-85